

INGLIZ TILIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TIL TAJRIBASINING AHAMIYATI

Abdupattayeva Maftuna Sohibjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti

E-mail: M.Abdupattayeva@gmail.ru +99893-778-88-45

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tili o'qitishda talaffuz materialini o'rgatishda til tajribasini o'rni va ahamiyati, chet til ta'limida til tajribasi tushunchasi, chet tilning o'zbek (ona) va rus (ikkinchi) tillarini o'rganishga bo'lgan salbiy (interferensiya) va ijobiy ta'siri (transpozitsiya) muammolariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish, talaffuzni o'rgatish, til tajribasi, salbiy ta'sir (interferensiya), ijobiy ta'sir (transpozitsiya), potensial leksika va baynalmilal so'zlar tasnifi.

РОЛЬ И МЕСТО ЯЗЫКОВОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПРОИЗНОШЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Абдупаттаева Мафтунa Сохибжоновна, студентка

Наманганского государственного института иностранных языков.

E-mail: E-mail: M.Abdupattayeva@gmail.ru +99893-778-88-45

Аннотация: эта статья из начните на уроках английского языка особенности формирования навыков произношения у учащихся, изучение и важность языкового опыта в проведении материала по произношению при обучении английскому языку, понятие языкового опыта в изучении иностранного языка, изучение узбекского (родного) и русского (второго) языков в ходе исследования были выявлены интерференционные эффекты (интерференция) и позитивное воздействие (транспозиция).

Ключевые слова: преподавание английского языка в начальных классах, обучение произношению, языковой опыт, негативное влияние (интерференция), положительное влияние (транспозиция), потенциальный словарный запас и международная классификация слов.

THE ROLE AND PLACE LANGUAGE EXPERIENCE FOR DEVELOPING PRONUNCIATION SKILLS OF PRIMARY CLASSES IN ENGLISH LANGUAGE

Abdupattayeva Maftuna Sohibjon qizi,

student of the Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: E-mail: M.Abdupattayeva@gmail.ru +99893-778-88-45

Annotation: This article is teaching English pronunciation skills in primary classes, the place and importance of language experience in teaching pronunciation material in English, the concept of language experience in learning a foreign language, learning Uzbek

(mother tongue) and Russian (second) languages interference effects were identified during the study (interference) and positive impact (transposition).

Keywords: *English Language Teaching in elementary classes, teaching English pronunciation, language experience, negative impact (interference), positive impact (transposition), potential vocabulary and international word classification teaching languages.*

KIRISH

Mustaqil Respublikamizning har tomonlama siyosiy va iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ravnaqida chet tillarni mukammal bilish bugungi kunning ustivor vazifasiga aylandi. Shu bois, chet tillarni o'rganish va o'rgatishda ilg'or, tezkor metodlardan foydalanish o'z samarasini berishi tabiiy, albatta. Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki va asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib, o'quvchilarning chet til bo'yicha ilk lingvistik va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitishda o'quvchilarning dastlabki ko'nikmalari, avvalo, ularning talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, talaffuzni o'rgatish orqali o'quvchilar atrofdagi borliqni qabul qiladilar, narsa-buyum va hodisalarni inglizcha nomlarini o'rganadilar, o'z fikrlarini bayon qilishni o'rganadilar. Ayni vaqtda ushbu ko'nikmalar o'quvchilar ongi, tafakkurining shakllanishiga, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga nisbatan turlicha munosabatlarining shakllanishiga, muayyan sohalar bo'yicha qiziqishlarni hosil bo'lishiga turtki bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinflarda chet tilda talaffuz va og'zaki nutq ko'nikmalarini integrativ rivojlantirish masalalari dolzar muammolardan biridir. Boshlang'ich sinflarda talaffuz va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari taniqli olimlar P.Ya.Galperin, A.N.Leontev, V.V.Vigotskiy, N.I.Jinkin va I.A.Zimnyayalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, jarayonning lingvodidaktik jihatlari E.I.Passov, A.A.Mirolyubov, R.P.Milrud, N.D.Galskova, D.I.Gez, I.L.Bim, V.A.Buxbinder, P.B.Gurvich va A.N.Shukin kabi tilshunos olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Tilshunoslikda so'zlashuvni nutq faoliyatining til mahsuli sifatida o'rganilsa, psixologiya uni muayyan individga xos bo'lgan og'zaki nutqiy jarayon deb hisoblaydi. E.I.Passov bu jarayonda og'zaki nutqning ustivor jihati –

intonasiya, mimika va imo-ishoralar orqali soʻzlovchi tinglovchiga vaziyatning ikir-chikirlarigacha axborot bera olishi mumkinligini taʼkidlab oʻtadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlangʻich sinflarda ingliz tilini oʻqitish jarayonida talaffuz materiali ustida ishlash ogʻzaki nutq (gapirish va tinglab tushunish), oʻqish malakalarini shakllantirishda muhim oʻrin egallaydi. Chunki, ingliz tilida fikr bayon etish uchun aytiladigan jumla, tovushlarni talaffuz etish va ularni birlashtirish hamda tegishli nutq ohangi(intonatsiya)ni bilish talab etiladi. Mazkur tadqiqotda chet til taʼlimida oʻquvchilar talaffuz koʻnikmalarini shakllantirishda til tajribasini hisobga olish tamoyili xususida fikr yuritiladi. Oʻquvchilarning “til tajribasi” uch tildan yigʻilgan bilim, koʻnikma va malakalar majmui boʻlib, uning hajmi, qoʻllanish koʻlami, oʻzaro bogʻliqligi masalalari metodikaning “til tajribasini hisobga olish prinsipi” doirasiga kiradi. Metodikada til tajribasini hisobga olish alohida ahamiyatga ega boʻlgan metodik hodisadir.

“Til tajribasini hisobga olish” deganda, oʻquvchi shu kungacha oʻzbek, rus, chet tillardan olgan bilim, koʻnikma va malakalarining hozir oʻrganilayotgan chet til materialini oʻzlashtirishga salbiy yoki ijobiy taʼsiri tushuniladi. Oʻquvchilarning “til tajribasi” chet til oʻrganishda gʻov boʻlishi (salbiy taʼsir – interferensiya) yoki yordam berishi (ijobiy taʼsir – transpozisiya) kuzatiladi. “Interferensiya” (salbiy taʼsir) – lotincha soʻz boʻlib, “inter” orasida, ichida, “ferentis” – koʻchiruvchi, oʻtkazuvchi degan maʼnolarni bildiradi, yaʼni salbiy taʼsir, nomaʼlum koʻchish, toʻsqinlik qilish, gʻov boʻlish, koʻnikma va malakalarni salbiy natijaga olib borish tushuniladi. Ikkinchi metodik hodisa bu “transpozisiya”dir. “Transpozisiya” (ijobiy taʼsir) ham lotincha soʻz boʻlib, “transposition” – boshqa joyga koʻchish degan maʼnoni bildiradi. Ushbu tushuncha metodikada ijobiy taʼsir, ijobiy koʻchish, yordamga kelish, koʻmaklashish, ijobiy natijaga olib boruvchi bilim, koʻnikma va malakaning koʻchishi maʼnolarida talqin qilinadi.

Ilmiy-tadqiqotlarda oʻquvchilar til tajribasi(TT)da yuz beradigan ijobiy va salbiy taʼsir hodisalarining muayyan tartiblari ishlab chiqilgan. Ularda (a) ona tilidan ikkinchi tilga (TT1dan TT2ga), (b) ona tilidan chet tilga (TT1dan TT3ga), (v) ikkinchi til(rus tili)dan chet tilga (TT2dan TT3ga), (s) ona tili va ikkinchi tildan chet

tilga (TT1-TT2dan TT3ga) bo'ladigan ijobiy va salbiy ta'sir natijalari tadqiq qilingan [4:38-44].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida ona tili, ikkinchi til (rus tili) va o'rganilayotgan chet tilning o'zidan to'plangan tajriba xususida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir. "Tajriba" ilmiy kategoriyadagi termin sifatida ushbu o'rinda tor lingvodidaktik jihatdan talqin qilinadi. Uning metodik ta'rifi quyidagicha ma'qul ko'rinadi; "tajriba" – individ(shaxs)ning nutqiy muomila jarayonida muayyan mavzuga oid til birliklari bilan ish ko'rishidir. O'quvchining tajribasi umumiy xabardorlik(ob'yektiv borliq haqidagi ma'lumotlarni bilish)dan, til zahirasiining leksika, grammatika, talaffuz kabi vositalardan, muayyan bir mavzu doirasida ma'lumotlarni berish va olish qobilyatidan iborat bo'ladi [3:59-60].

Bir va undan ortiq tilni egallashdan qat'iy nazar o'quvchida (har qanday kishida ham) muayyan "til tajribasi" hosil bo'ladi. Til o'qitishda ularni nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar tarzida talqin qilinadi. "Nutqiy tarkib" deganda, muloqot malakasi, ya'ni axborot yetkazish va o'zgarlar fikrini idrok etib tushunish, "lisoniy tarafi"da esa axborot olish va berish maqsadida til hodisalaridan til birliklarida foydalanish va, nihoyat, "lingvistik jihat"dan til hodisalariga doir bilimlar nazarda tutiladi. Har uch qism bir butun "til bilish" tushunchasini hosil qiladi.

"Til tajribasi", avvalo, ona tilida shakllanadi, ikki va undan ko'p til bilganlarda uning tegishli qatlamlari oshib boradi. Oqibatda, xotira va tafakkurda nutqiy, lisoniy va lingvistik tarkiblar boyishiga erishiladi. Fikrni ifodalashda turli tillarga oid vosita va usullar ishga tushadi. Shu asnoda bir til doirasida va tillararo salbiy (interferensiya) yoki ijobiy ta'sir (transpozision) xususiyatlarini nazariy tasniflash malakasi hamda ta'lim jarayonida ularga farqlab yondashish amaliy muammosi paydo bo'ladi.

Til tajribasini hisobga olish ayniqsa, potensial leksik birliklarning quyidagi turlarini o'rgatishga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi: (1) shakli va ma'nosi chet til, ona tili va ikkinchi tilda o'xshash so'zlarni (academic-lyceum, college, gymnasium, arithmetic, astronomy, geography, arithmetic, computer, laboratory); (2) shakli va ma'nosi ikkinchi va chet tilda o'xshash so'zlarni (student-student, style-stil, actually-

актуалны, active-aktiv, analysis-analiz, center-syentr, certificate-cyertifikat, classification-klassifikatsiya, communication-kommunikatsiya); (3) chet til konversiyasi usulidagi soʻzlar (answer-javob, to answer-javob bermoq, air-havo, to air-shamollatmoq); (4) qismlari oldin oʻrganilgan oʻquvchiga tanish qoʻshma soʻzlar (schoolboy, homework classroom, bookshop, workplace, handball); (5) oʻzak va affiks qismlari tanish yasama soʻzlar (teacher, director, publication, typical, graceful, stormy); (6) toʻliq shakli tanish qisqartma soʻzlar (UNO-United Nations Organization, RU-the Republic of Uzbekistan, the UK-the United Kingdom).

XULOSA

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, oʻquvchilarning til tajribasini boyitish uchun ularning chet til va ona tili boʻyicha tillararo yoki til ichki lingvodidaktik qiyosiy tahliliga oid bilimlar bilan qurollantirish, ularning bilish, kommunikativ-taʼlim va amaliy-rejalashtiruv vazifalarini hal etishga qaratilgan malakalarini shakllantirish orqali erishish mumkin.

Talaffuzni oʻrgatish metodikasidan shu narsa maʼlumki, nutqning talaffuz tomoni ustida chet til oʻrgatishda тил тажрибасининг ўрни ва аҳмияти беқиёсдир. Soʻnggi yillarda talaffuzni oʻrgatishda тил тажрибасини ҳисобга олиш boʻyicha oʻtkazilgan tajribalardan quyidagicha xulosalar chiqarildi:

1. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining talaffuz koʻnikmasi va ogʻzaki nutqini shakllantirish chet til taʼlimning amaliy maqsadi maqomida, yaʼni kommunikativ nutqiy muloqotni taʼminlovchi vosita sifatida oʻrgatiladi.

2. Boshlangʻich sinflarda talaffuzni oʻrgatishda til tajribasini hisobga olish, darsda ijodiy, muammoli-izlanish xarakteridagi uslublar – oʻyin, qoʻshiq va ertaklarlardan foydalanib dars oʻtish ijobiy samara beradi.

3. Tadqiqot jarayonida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ingliz tilida ogʻzaki nutq koʻnikmasini rivojlantirishda oʻyin (game), sheʼr (rhyme), qoʻshiq (song) va ertak (fairy tails) texnologiyalari asosida oʻrgatishning metod, shakl va vositalarini uygʻun holda qoʻllash orqali yangi lingvodidaktik imkoniyatlar aniqlanib, oʻquvchilarning yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali taʼlim muhiti yaratilishi taʼminlandi.

4. Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmasini shakllantirishda o'quvchilarning diqqat, idrok, tafakkur, til, nutq va muloqot muhiti kabi psixologik jarayonlarini inobatga olish, chet til o'qitishda appokismatsiyalashgan va taqlidiy talaffuz, til tajribasini hisobga olish kabi tamoyillariga amal qilish chet til o'qitishda kutilgan natijalarni beradi.

5. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, o'yin-topshiriq, strategiyalar, interaktiv metodlar, didaktika o'yinlar, multimediya, ertak, she'r va qo'shiqlardan foydalanib o'tilgan ingliz tili darslari o'quvchilarning so'z boyligini oshishiga, o'quvchilarning darsda bilish faolligini rivojlanishiga, so'zlardagi o'zaro bog'lanish(assosiatsiya)ni tushunib yetishda qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M.A. Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining leksik kompetensiyasini o'yin texnologiyasi orqali shakllantirish metodikasi. Avtoreferat diss....ped. fan. bo'yicha falsafa. dokt. – Namangan: 2025 – 46 bet.
2. Akbarova Sh.H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi. Avtoreferat.diss.ped.fan.dok. – T.: 2020. – 42 bet.
3. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 1996. –368 b.
4. Sattorov T. Q. Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. –T.: TDYUI, 2003.–191 b.
5. Tajibayev G'.Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet til o'qitishda kommunikativ yondashuv. Avtoreferat.diss.ped.fan.dok. – T., 2018. 46-bet;
6. Tursunov H.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kommunikativ kompetensiyalarini didaktik o'yinlar vositasida shakllantirish (fransuz tilini o'rgatish misolida).:Avtoreferat.diss.ped.fan.dok. –N. : 2022. – 48 bet.;